INDIKATOR – SAPROB SUV O‘TLARI AHAMIYATI

Ismatova Zulayxo Asadovna
Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD
Kamolova Shohsanam Nuriddinovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti doktoranti

Annotatsiya.

Indikator – saprob suvo‘tlari turlari suvni ortiqcha biogen va mineral elementlardan tozalash xususiyatiga ega bo‘lib, ularning turiga qarab, ba’zi indikator saprob turlar iflos suvlarda, ayrimlari esa faqat toza suvlarda yashash hususiyatiga ega. Ularning suvdagi organik moddalarga nisbatan indikatorlik hususiyatiga qarab, suvning tozalik ko‘rsatkichini aniqlash mumkin.

Kalit so‘zlar. Suvo‘tlari, suvining ifloslanishi, suv havzalari, indikator – saprob suvo‘tlari, tahlil

Аннотация

Индикаторно-сапробные виды водорослей обладают свойством очищать воду от избытка биогенных и минеральных элементов, и в зависимости от их вида одни индикаторно- сапробные виды обитают в грязных водах, а некоторые - только в чистых водах. Определить показатель чистоты воды можно в зависимости от их индикаторных свойств по отношению к органическим веществам в воде.

Ключевые слова. Водоросли, загрязнение воды, водоемы, индикаторно - сапробные водоросли, анализ.

Annotation.

Indicator- saprobnye species of algae have the property to clean water from excess nutrients and mineral elements, and depending on their species, some indicator- saprobnye species live in dirty waters, and some - only in clean waters.Water purity can be determined depending on their indicator properties relative to organic matter in water.

Keywords. Algae, water pollution, ponds, indicator saprobnye algae, analysis.

Har qanday o`simlik muayyan bir muhitda – o`ziga xos ekologik sharoitlarda o`sadi va o`zlari o`sadigan muhit sharoitlari haqida ma`lumotlar beradi. Bugungi kunda dunyoda suv resurslarini muhofaza qilish, suv havzalari barqarorligini ta’minlash va ayniqsa, suv havzalari tabiiy florasini saqlab qolish, ulardan strategik obyekt sifatida foydalanish muhim ahamiyat kasb

etadi. Butun dunyo bo'yicha 72 000 dan ortiq suvo'tlar turlari ma'lum bo'lib, ulardan faqatgina 38% I tarqalish xususiyatlari aniqlangan xalos. Shu o'rinda suv havzalari, ayniqsa, xalq xo'jaligi bilan bog'liq suniiy suv havzalari algaflorasining hozirgi holati va kelajakdagi holatini baholash va uni amaliy tadbiq etish asosiy dolzarb muammolardan biridir. Respublikamiz sanoatini ifloslantiruvchi asosiy manbalar – zavod va fabrikalar, tog' – kon sanoati, kommunal xo'jalik, transport vositalari va qishloq xo'jaligidir. Suv havzalarining ifloslanishiga sanoat va kommunal xo'jalik chiqindi suvlaridan tashqari daryolar, ko'llar, suniiy havzalari ham katta ta'sir ko'rsatishini Jizzax viloyati baliqchilik xo'jaliklari misolida ko'rishimiz mumkin. Chunki, daryo suvlari dalalardagi tuzlarni, ekinlarga solingan va sepilgan har xil ximikatlarning eritmasini suv havzalariga olib keladi. Bu holat esa suniiy suv havzalari suvining ifloslanishini suvda yashovchi hayvonlarning va suvo'tlarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muammoni o'rganish maqsadida biz Jizzax viloyati baliqchilik xo'jaliklari algaflorasini o'rganmoqdamiz. Shu o'rinda suniiy suv havzalari algaflorasi tarkibi, ifloslanish darajasini baholash O'zbekiston sharoitida suv havzalari algaflorasi taksonomik tarkibining shakllanishida to'yintiruvchi suv manbalarining ahamiyatini ilmiy asoslash va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridir

Aslida ko'k-yashil suvo'tlar chuchuksuv dengizlarda tarqalgan ohaktosh, marmar, qoyalar ustiga birikib o'sadi. Ular o'zidan organik kislota ishlab chiqarib ohaktoshlarni eritib ingichka kanal hosil qiladi, kanalchaga o'simliklar o'rnashib oladi. Suvo'tlar o'zidan kalsiy karbonat ishlab chiqarib ohaktosh hosil qiladi. Suv havzasining ifloslanish darajasi shu suvda bor bo'lgan organik birikmalarning miqdoriga va ularning tabiatiga bog'Iiq. Bu bog'lanish shundan iboratki, ifloslanishning har qaysi darajasiga biror maxsus turdagi organizmlarning rivolanishi munosib keladi. Tarkibida ma'lum miqdor organik moddalari bor biror ifloslanish darajasidagi muhitda organizmlarning rivojlanish xususiyati ayni organizmning saprobligi deb ataladi. Suv havzasining ifloslik darajasi ayni muhitda ma'lum saproblikda yashovchi organizmning saprobligi bilan tasvirlanadi. Ifloslanish darajasiga qarab, turlarini aniqlash muhim hisoblanadi

Baliqchilik hovuzlaridagi inson faoliyati ta'siri natijasida organik moddalarning ko'p miqdorda to'planishi ko'k-yashil suv o'tlarining o'ta darajada ko'payib ketishiga va suvning gullashiga olib kelgan. Ushbu holat hovuzlar ekosistemasiga kuchli darajada salbiy ta'sir etishi mumkin ya'ni tungi va kunduzgi vaqtlarda kislorod miqdorining keskin farq qilishi, suv tubidagi organikaning chirishidan metan, vodorod sulfid va boshqa zaharli gazlarning ajralib chiqishi mumkin.

2021-2024 yillar mobaynida Jizzax viloyatidagi Sh.Rashidov tumani "Qanoat", Zafarobod tumani, Arnasoy tumani "Bo'ron savdo" baliqchilik xo'jaligi, Baxmal tumani "Baxmal faunasi" baliqchilik xo'jaligi, Zomin tumani kabi baliqchilik xo'jaliklarida olib borilgan algologik tadqiqotlarimiz natijasida 2 sinf, 3 tartib, 7 oila, 11 turkum 41 ta tur va tur xillarining borligi o'rganildi (1-jadval).

Chroococophyceae sinfi 5 ta oila 7 ta turkum 19 tur va tur xillaridan tashkil topgan. *Hormogoniophyceae* sinfi 22 ta tur va tur xillaridan iborat bo'lib, 2 ta oila 4 ta turkumni o'z ichiga oladi. Tartiblar ichida *Oscillatoriales* Elenk. tartibi, oilalar ichida *Oscillatoriaceae* (Kirchn.) Elenk. oilasi, turkumlar ichida *Oscillatoria* Vauch. turkumi tur va tur xillariga boyligi bilan ajralib turadi. Keying o'rinlarni *Merismopedia* (Meyen.) Elenk. emend., *Aphanothece* (Naeg.) Elenk. emend., *Gloeocapsa* (Kuetz.) Hollerb. emend. turkumlari egallaydi.

Oscillatoria Vauch. turkumi 16 tur va turlari soni bilan yetakchilik qiladi. *Synechococcus* Naeg., Coelosphaerium (Nag.) Elenk. sensu novo mut., Scytonema Ag. turkumlarining bittadan turlari borligi aniqlandi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki olib borilgan ilmiy tekshirish tahlillarimiz natijasida Jizzax viloyatidagi tadqiqot ishlari olib borilgan Sh.Rashidov tumani "Qanoat", Zafarobod tumani, Arnasoy tumani "Bo'ron savdo" baliqchilik xo'jaligi, Baxmal tumani "Baxmal faunasi" baliqchilik xo'jaligi, Zomin tumani kabi baliqchilik xo'jaliklarida olib borilgan algologik tadqiqotlarimiz natijasida ko'k-yashil suvo'tlarining 2 sinf, 3 tartib, 7 oila, 11 turkum 41 ta tur va tur xillarining borligi o'rganildi. *Synechococcus* Naeg., Coelosphaerium (Nag.) Elenk. sensu novo

mut., Scytonema Ag. turkumlarining bittadan turlari uchrashi va *Oscillatoria* Vauch. turkumi 16 tur va turlari soni bilan yetakchilik qilishi aniqlandi.

Demak, tabiatdagi suv havzalarining o‘rni insonlar hayotida muhim ahamiyatga egaligini his qilgan holda ularni toza saqlash nihoyatda muximdir. Uni toza saqlashga har bir kishi o‘z hissasini qo‘shmog’i, buning uchun esa, farzandlarimizni yoshligidanoq tabiatni sevishni va uni toza va sof holatda saqlash zarurligini, atrof muhitning, suvning ifloslanishi o‘zimiz uchun salbiy holatlarga olib kelishini tushuntirib borishlik lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammedov M.M., Mirzahalilov M.M. Baliqchilik hovuzlaridagi ba’zi tabiiy ozuqalarning gidrobiologik tahlili. Ijodkor o‘qituvchi jurnali. 24-son, 2022.

2. Ismatova Z.A. Development of the Algae Flora of the Middle Sangzor River under the Influence of Environmental Factors. Journal of Geography and natural Resources.
DOI: https://doi.org/10.37547/jgnr-01-03

3. Ismatova Z.A. Floristic and systematic analysis of the composition of algoflora of the Sangzar River. International Journal of Advanced Science and Technology, Vol. 29, No. 8. 2020. pp.3449-3453.

4. Ismatova Z.A. Systematic analysis of indicator saborbine species of alcohols of the Sangzar river. The Tenth European Conference on Biology and Medical Sciences. European Science Review. – Vienna, 2018. –№3-4. – P. 39-42.

5. Ismatova Z.A. Seasonal development of aquatic of the class Chlorophyta and their distribution on the current of the river Sangzar. The Tenth International Conference on Biology and Medical Sciences. 5th June 2016. Austria, Vienna. –P. 86-90.

6. Tojibayev Sh.T., Naraliyeva N.M. Botanika: Tuban o‘simliklar. “Namangan” nashriyoti. 2016. 362 -b.

7. Sanjar, S. (2022). VOCATIONAL ORIENTATION THROUGH THE DEVELOPMENT OF MATHEMATICAL COMPETENCES IN THE STUDENTS OF TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(06), 58-64.